

LIMON YETISHTIRISH

Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar institute talabasi.

Abdumo'minov Oybek Asrorbek o'g'li

Annotatsiya: *Ushbu maqolada shifobaxsh sitrus mevalardan biri limon haqida, uning dorivorligi, yetishtirish jarayoni borasida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Limon, meva, sitrus, shox, barg, darxt, to'qima, kislota, vitamin, yurak-tomir, shaker, kislota, modda.*

Limon shamollashda eng birinchi yordamchi vazifasini o'taydi. Ammo bundan tashqari uning foydali xususiyatlari juda serob bo'lib, shu sababdan uni qadim zamondan ishlatib kelishgan. Shunday qilib, limonning o'ziga xos xususiyatlari quyidagicha:

- limon o'zida ko'p biriktiruvchi to'qima va kislotalarni saqlab, ovqat haz qilishni yaxshilaydi;
- limon moddalar almashinuvini yaxshilaydi;
- o'zida temir moddasini saqlashi sabab ham, kamqonlikda ham foydalidir;
- limon yurak-tomir tizimini mustahkamlaydi;
- shamollash va anginada u nafaqat C guruh vitamini borligi sababidan foydalidir, balki u shamollashga qarshi samarali kurashadi;
- garmonlar muvozanatini ushlab turadi;
- immunitetni mustahkamlaydi.

Respublikamizda o'stirilayotgan mevali o'simliklar orasida sitrus o'simliklari alohida o'rin tutadi. Dunyoda sitrus o'simliklari juda xilma-xil bo'lib, ular orasida apelsin, mandarin, limon, greypfrut eng ko'p tarqalgan. Sitrus o'simliklarning kelib chiqqan eng asosiy markazi Shimoliy Hindiston va Shimoliy Birma hisoblanadi. O'zbekistonga sitrus o'simliklari XX asrning ikkinchi yarmida olib kelinib, sovuqqa chidamsiz bo'lganligi bois ularni issiqxona hamda handaklarda o'stirilib parvarish qilina boshlandi.

So'nggi paytlarda limon butun Markaziy Osiyo bo'ylab issiqxonalarda faol ravishda yetishtirib kelinmoqda. U, ayniqsa, mo'l hosil olayotgan O'zbekiston va Tojikistonda keng tarqalgan. Respublikamizda limonchilik sohasida boshqaruv tizimini isloh qilish, shuningdek, limon plantatsiyalari maydonlarini kengaytirish, iqlim sharoitimiz va tashishga yaroqli navlarni yetishtirish hisobiga mahsulot ishlab chiqarish va eksport qilish hajmini oshirish bo'yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda o'zbekistonlik mutaxassislar issiqxona va ochiq maydonda sitrus mevalar ko'chatlarining yangi navlarini, shuningdek, tugunlarini (ekish uchun tanlangan ikki yillik ko'chatlar) yetishtirish, kasallik va zararkunandalarga qarshi kurashishga alohida e'tibor qaratishmoqda. Laboratoriyalarda ishlayotgan olimlar, issiqxona mutaxassislari limonning boshqa mamlakatlarga eksport qilish va tashish uchun yaroqli navlarini yaratmoqda. "Limon" so'zining kelib chiqishi xitoy tiliga oid bo'lib, tarjimada "onalar uchun foyda" degan ma'noni anglatadi. Limonning

foydasi haqida ko'pchilik biladi, birorta ham shamollash usiz davolanmaydi, limon tibbiyot va kosmetologiyada keng qo'llaniladi.

Sitrus o'simliklari mevasining tarkibida ko'p miqdorda vitaminlar, mineral moddalar, organik kislotalar, inson organizmi uchun zarur bo'lgan davolovchi ozuqa moddalari mavjud. Jumladan, O'zbekistonda sitrus o'simliklaridan eng ko'p yetishtiriladigani limon hisoblanib, u eng qimmatli shifobaxsh va tetiklashtiruvchi mevalardan biri. Mevasining tarkibida 2 foizga yaqin shakar, 6–8% turli kislotalar (asosan limon kislotasi), 1 foizdan ko'proq pektin moddalari, 0,5 foizga yaqin har xil mineral tuzlar, 60–90 mg S vitamini, ma'lum miqdorda A, V1, V2, RR vitaminlari bo'ladi. Tabobatda limon turli yurak-tomir tizimi kasalliklari, singa, sil, angina, organizmda moddalar almashinuvi buzilishi, bod kasaligini davolashda qo'llaniladi. Bundan tashqari limon tarkibidagi RR guruhi vitaminlari qon bosimi pasayishiga yordam beradi va miyada qon quyulib qolishining oldini oladi. Bundan tashqari, limon mevalarini uzoq saqlanganda va qayta ishlanganda ham tarkibidagi vitaminlarning yaxshi saqlanishi uning qimmatli xususiyatlaridan biridir.

Limon o'simligini agrobiologik xususiyatlari. Limon o'simliklari issiqsevar bo'lganligi bois, u sovuqqa chidamsiz, shu sababli uning mevalarining yetilishi uchun juda ko'p miqdorda foydali issiq harorat yig'indisini talab qiladi. Shuning uchun respublikamizda limon o'simliklarini himoya qilingan joylarda, ya'ni issiqxona va handaklarda ekib o'stiriladi (lekin, ushbu inshootlarning usti yoz faslida ochib qo'yiladi).

Limon o'simliklari qulay o'sib-rivojlanishi va hosil tugishi uchun 4000^oS dan ortiq foydali harorat yig'indisini talab qiladi. Biroq, limon mevalari -2,5^oS, barg va bir yillik novdalari -3–4^oS da zararlanib, haroratning -5–6^oS gacha pasayishi qariroq shoxlarning halok bo'lishiga olib kelib, -8–9^oS da esa o'simlikni butunlay sovuq uradi. Issiqxona va handaklarda ob-havo sharoitlariga, o'simlik yoshiga, meva berish darajasiga va boshqa omillarga qarab sutkalik havo harorati +12^oS bo'lib, tuproq harorati +5^oS da limon o'simliklarining kurtaklari ochilib novdalari o'sa boshlaydi. Fevral boshlarida plastik moddalar ajralib chiqadi, shuningdek, ko'p miqdorda gulkurtaklar vujudga keladi, bular yuqori hosil olish uchun katta ahamiyatga ega. Issiqxona xamda handaklarda o'rtacha havo harorati 16–18^oS va tuproq harorati 14–17^oS bo'lganda limon gulining g'unchalari shakllanadi. Mart-aprel oylarida issiqxona va handakda havo harorati 18–22^oS va tuproq harorati 21^oS bo'lganda gullari qiyg'os ochilib, gullash davomiyligi 20–25 kunni tashkil etadi.

Meva tugunlarini shakllanib va tutib qolishi uchun ushbu haroratni ushlab maqsadga muvofiqdir. Limon o'z-o'zidan va chetdan changlanadigan o'simlik bo'lganligi sababli asalarilarda foydalanish tugunchalarning ko'proq hosil bo'lishiga yordam beradi. Aprel oxiri may boshlarida sutkalik o'rtacha harorat 22^oS bo'lganida mevalarning shakllanish bosqichi boshlanadi va iyunning birinchi o'n kunligida havo harorati 25,4^oS bo'lganida tugaydi. Meva tugishi va ularning rivojlanishi uchun birinchi o'n kunlikda havo 20–25^oS gacha qizishi va nisbiy namlik 70–80% bo'lishi zarur. Bunday sharoitda limon o'simligi ancha yaxshi gullab mo'l hosil tugadi. Havo quruqligi va haroratning keskin oshishi tugunlarning ko'plab to'kilib

ketishiga olib kelishi mumkin. May-iyunda oylarida limon mevasi tez rivojlanadi, keyin o'sishi bir oz sekinlashadi. Shu bilan birga, oktyabr oyigacha po'sti sarg'ayguncha yiriklashaveradi. Noyabr-dekabr boshlarida meva pishib, noyabrda limon o'simligi tinim davriga kiradi. Ushbu davrda issiqxona va handakda harorat o'rtacha +8^oS dan oshmasligi kerak.

Limon o'simligi barglari 2–3 yil yashaydi va asta-sekin almashinadi. Yosh (1 yilligigacha) barglar oziq moddalarni faqat iste'mol qiladi, qariroqlari esa oziq moddalarni o'sish va hosil tugish uchun tuplaydi. Limonni Meyer navi sovuqqa unchalik chidamli bo'lmaganligi uchun uni handak va issiqxonalarda o'stirilib, issiqxonalarda yetishtiriladigan boshqa o'simliklarga nisbatan issiqlik kam sarflanadi. Handakda ushbu nav qisqa muddatda o'sib-rivojlanib, parvarish qilish yengillashadi hamda yuqori hosildorlikni ta'minlaydi.

Limon o'simligining novdasi o'sish sur'ati jixatidan bir-biridan farq qiladi, ba'zilari yo'g'on, boshqalari mayda, nozik bo'lganligi bois har doim ham shakl berish uchun yetarli bo'lmaydi, natijada bu ish ikkinchi yili ham davom ettiriladi. O'sayotgan novdalar o'z vaqtida chilpib, pishgandan keyin kesilsa, shox-shabbaga kerakli shakl berish mumkun bo'ladi. Chilpib tashlangan novdalar, odatda, bittadan yangi novdalar chiqararadi. Ko'proq shoxlash uchun bu novda pishgandan keyin kesib qisqartiriladi. Agar faqat bitta kurtak o'sib chiqsa, yana ikkinchi marta pastroqdan kesiladi. Lekin, ikkinchi marta kesish ko'pincha o'zini oqlamaydi. Ko'p kesilsa ma'lum miqdordagi shox va barglar kesilib ketadi va o'simlik nimjonlashib qoladi. Shuning uchun chilpish va kesish shox shabbaning holatiga mos ravishda olib borilishi kerak. Chilpigandan keyin tez o'sib ketadigan novdalar kesib qisqartiriladi. Kuchli o'sadigan novdalar va shoxlarning yon shoxlari kesiladi.

Limon sovuqqa unchalik chidamli emas, shu boisdan uni O'zbekiston sharoitida faqat transhiyalarda, issiqxonada faqat sun'iy sharoit yaratib o'stirish mumkin. Garchi limonni issiqxonada o'stirish uchun ko'p xarajat talab qilinsa hamki, uni transheyada o'stirilganda har tup daraxtdan o'rta hisobda 200-250 tagacha meva olish mumkin bo'lgan holda, issiqxonada o'stirilganidan 400-500 tadan limon yetishtiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'. Prator, Q. Jumayev. Yuksak o'simliklar sistemikasi. Toshkent - 2003
2. Q. Xaydarov, Q. Hojimatov. O'zbekiston o'simliklari. Toshkent "O'qituvchi" 1992
3. Q. Hojimatov, M. Olloyorov. O'zbekistonning shifobaxsh o'simliklari va ularni muhofaza etish. Toshkent 1998 yil.
4. Toshkent Davlat Agrar Universiteti. Dorivor o'simliklarni yetishtirish texnologiyasi. Toshkent "Iqtisod-moliya"2018.